

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH HAMDA UNING O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY IQTISODIIY HAYOTIGA TA’SIRI

Yuldasheva To‘tixon Yakubovna

“Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi” assistenti
totiyoyuldasheva1968 @gmail.com

Yusupov Ruzmat Yuriy o‘g‘li

Andijon xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Yurisprudensiya ta‘lim
yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotigi korrupsiya, shaxsiy manfaatlar ustunligi va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni izdan chiqaruvchi va mamlakatni iqtisodiy o‘lishiga salbiy ta‘sir o‘tkazuvchi illatlar haqida so‘z yuritiladi va oqibatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar : *davlat, jamiyat, korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, adolat, mezon, salbiy ta‘sir, taraqqiyot.*

Korrupsiya bu-mansabdor shaxslarning o‘z vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yoki o‘zga shaxslar manfaatlarini yo‘lida suiste‘mol qilishi bo‘lib, ushbu zararli illat qadimdan insoniyat taraqqiyoti uchun o‘z salbiy ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda.

Korrupsiyaning kelib chiqishi qadimgi davrga borib taqalib, bunda odamlar qabilada ma‘lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb tahmin qilinadi va bu odat o‘sha davrda normal holat sifatida qabul qilingan. Korrupsiya davlat paydo bo‘lgan qadimgi davrlardan bugungi davgacha har bir zamonning sub‘ektiv omillari tufayli ytashab kelmoqda. Korrupsiya zamonaviy davlatlarning barchasida davlat boshqaruv shali hamda siyosiy rejimi, davlat boshida turgan guruhlarining maqsadi va siyosatiga bog‘liq holda, har bir davlatda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lib kelmoqda.

Misir, Mesopotamiya, Yunoniston va Rimda davlat lavozimlarida ishlovchi shaxslar o‘z xizmatlarini shaxsiy manfaatlar uchun suiste‘mol qilganlari korrupsiyaning qadimgi sivilizatsiya davridan mavjud ekanligining isbotidir. Platon va Aristotel kabi faylasuflar korrupsiyani davlatning siyosiy parchalanish sababi sifatida ko‘rgan hamda u jamiyatda adolatsizlik va iqtisodiy notenglikka olib keluvchi illat sifatida qoralaganlar.

Konfutsiy o'zining ta'limotida axloqiy qadriyatlar va davlat boshqaruvidagi shaffoflik davlat va jamiyat hayoti uchun muhim deb bilgan. U rahbarlar o'z faoliyatini olib borish davrida halol bo'lishlari va xalqning ishonchini qozonishlari kerakligini, ***korrupsiya esa rahbarlarni halolligini yo'qotishi natijasida yuzaga keladi*** deb ta'kidlaydi.

Korrupsiya XX asrda global muammo sifatida tan olinib, turli mamlakatlarda unga qarshi kurashish uchun qonunlar qabul qilinsada, ularning amalga oshirilishi qiyin kechmoqda. Jahonda korrupsiya atamasiga turlicha yondashlar asosida ta'riflanadi. "Korrupsiya – shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimyatini suiste'mol qilishdir. Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan "corruptio" so'zidan kelib chiqqan.

Korrupsiya barcha davlatlarda siyosiy elitada mavjud byurokratik apparatga nisbatan ishlatiladi hamda ushbu davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, korrupsiyani davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini davlat apparatining murakkablashuvi va markazlashuvida ko'rish mumkin.

Dunyo mamlakatlari shu kungacha insonlar va jamiyat hayoti va taraqqiyotiga to'siq bo'lgan, adolat mezonini buzuvchi bu illatga qarshi kurashib kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida Shumerlar davlati tan olinadi. 1787 – yilda qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlarida (AQSH) Konstitutsiyasida pora olish hattoki, Prezidentiga nisbatan Impichmentni qo'llash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida korrupsiya asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda va unga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasi hududida ham og'riqli nuqtaga aylanib qolmoqda. "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyat va davlat qurilishining barcha sohalarida korrupsiyaga oid jinoyatlarga chek qo'yilishiga qaratilgan keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar anchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz", deb prezidentimiz ta'kidlaydi.

Davlat va jamiyatning bu illatga qarshi olib borayotgan siyosatiga qaramay, barcha davlat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qilish asosiy vazifasi hisoblangan davlat organlari mansabdor shaxslar tomonidan o'z vazifalarini suiiste'mol qilishi holatlari uchrab turibdi. Mansabdor shaxslar korrupsiyani o'z

jinoiy maqsadlarini tezroq amalga oshirishning qulay yo'liga aylantirib oldilar. Mansabdor shaxs ortiqcha qiyinchilik va harakatlarsiz osongina asossiz boyish, moddiy "ehtiyojini" qondirish maqsadiga erishadi, shuningdek, pora evaziga o'z maqsadiga tezroq erishmoqchi bo'lgan ikkinch tomon ham bundan "minnatdor" va bu harakati orqali korrupsiyani avj olishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga qaramay, korrupsiyaning jamiyat va davlatda muayyan mavqe va vakolatga ega shaxslar orasida keng tarqalishi davlat va jamiyat obro'siga putur yetib, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi, investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtiradi, resurslar adolatli taqsimlanmaganligi bois ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

Prizidentimiz SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz". Gap korrupsiya haqida borar ekan, bu illat har qanday davlat va jamiyatning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazishi, konstitutsiyaviy asoslari va jamiyatdagi amal qilayotgan qonunlar ustuvorligini zaiflashtirib va fuqarolar huquq erkinliklari poymol bo'lishiga olib kelishini unutmasligimiz kerak.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilib, 2017 yildan mamlakatda keng ko'lamli islohotlar boshlangan. Korrupsiyaga qarshi qonunlar kuchaytirildi, yangi qonunlar qabul qilindi, davlat xizmalari jarayonlari avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirishga qaratilgan mexanizmlar joriy qilindi. Fuqarolar va nodavlat tashkilotlar tomonidan davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish imkoniyati kengaytirildi, bu esa jamoatchilik fikrini inobatga olish va korrupsion holatlar haqida xabar berish imkoniyatlari yaratildi.

Hulosa o'rnida shini ta'kidlash kerakki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, bularning samaradorligi jamoatchilikning faolligi va nazorati bilan bog'liqdir. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish har bir fuqaroning burchi va har kim butun jamiyat bilan birgalikda kurashibgina vatanimizni huquqiy davlat, adolatli va farovon jamiyatga aylantira olamiz.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi, qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishini nazarda tutib, bu borada ta'lim, tarbiya, targ'ibot va tashviqotni ta'lim barcha bosqichlarida amalga oshirish, bu illatga murosasizlik kayfiyatini jamiyatda mustahkamlash maqsadimizga erishishning ustivor bazifasidir.

Adabiyotlar

1. Zaxiriddin Muhammad Bobur., “Boburnoma”, T;. Meros nashriyoti, 1999 yil
2. Burhonuddin Marg‘inoniy, “Hidoya”, T;. Meros nashriyoti, 1999 yil
3. “Iskandarning yurishlari”, Arrian., T;. Meros nashriyoti, 1999 yil
4. X. Davron, “Vatan haqida yetti rivoyat”, *kh-davron.uz.kutubxona/*
5. Юлдашева, Т. Я., & Исомиддинов, С. (2024). Ўзбекистон Республикаси Конституцияда ёшлар ҳуқуқ ва эркинликлари кафолати. *Science and innovation*, 3(Special Issue 20), 311-313.